




2020- yil yanvar-sentabr




2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi ulushi **54,2 %** ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **15,0** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-sentabrida **70,3** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,0** foizga kam



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo
37,0 %

Sanoat
20,7 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
16,9 %

Qurilish
6,7 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 25987 ta, sanoatda 14540 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 11841 ta, qurilishda 4701 ta, yashash va ovqatlanishda 3872 ta, tashish va saqlashda 1787 ta tashkil etilgan.

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	323 014	391 300	68 286
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	72 411	70 251	-2 160
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YalM	%	54,7	54,2	-0,5
Sanoat	%	27,2	25,3	-1,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,1	97,8	-0,3
Investitsiya	%	44,3	50,3	6,0
Qurilish	%	76,6	72,1	-4,5
Chakana savdo	%	85,0	81,4	-3,6
Xizmatlar	%	53,5	52,4	-1,1
Yuk tashish	%	54,3	52,3	-2,0
Yuk aylanmasi	%	77,9	76,7	-1,2
Yo'lovchi tashish	%	91,2	94,3	3,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,1	96,4	1,3
Eksport	%	26,2	17,6	-8,6
Import	%	61,1	51,4	-9,7



**2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YalM va iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**

YalM

54,2%

Savdo

81,4%

Sanoat

25,3%

Qurilish

72,1%

Investitsiya

50,3%

Export

17,6%

Xizmatlar

52,4%

Import


51,4%

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	farqi (+;-)
O'zbekiston Respublikasi	72 411	70 251	-2 160
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 993	2 962	-31
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	4 546	6 360	1 814
Buxoro	5 097	4 340	-757
Jizzax	2 941	3 308	367
Qashqadaryo	4 198	3 710	-488
Navoiy	5 092	3 498	-1 594
Namangan	4 454	4 900	446
Samarqand	6 166	6 558	392
Surxondaryo	3 593	6 395	2 802
Sirdaryo	2 031	2 395	364
Toshkent	7 124	6 241	-883
Farg'ona	5 747	5 094	-653
Xorazm	3 944	3 704	-240
Toshkent sh.	14 485	10 786	-3 699



**2020- yil yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, % da**



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Toshkent shahri – 15,4 %, Samarqand viloyati - 9,3 %, Surxondaryo viloyati - 9,1 %, Andijon viloyati - 9,0 %, Toshkent viloyati - 8,9 %, Farg'ona viloyati - 7,2 %, Namangan viloyati - 7,0 %, Buxoro viloyati - 6,2 % hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- y. yanvar-sentabr	2020- y. yanvar-sentabr	farq. (+;-)
Jami	72 411	70 251	-2 160
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 436	11 841	6 405
Sanoat	15 812	14 540	-1 272
Qurilish	7 277	4 701	-2 576
Savdo	27 970	25 987	-1 983
Tashish va saqlash	2 409	1 787	-622
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 406	3 872	-1 534
Axborot va aloqa	1 257	1 357	100
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	965	1 112	147
Boshqa faoliyat turlari	5 879	5 054	-825

Ma'lumot uchun: 2020– yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

25987 ta

Sanoatda

14540 ta

Qishloq,
o'rmon va
baliqchilik
xo'jaligida

11841 ta



Qurilishda

4701 ta

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Andijon sh.	1282	1584	302
Samarqand sh.	1881	1564	-317
Chilonzor tumani	1811	1408	-403
Yunusobod tumani	1701	1254	-447
Mirzo-Ulug'bek tumani	1525	1201	-324
Uchtepa tumani	1902	1111	-791
Shayxontohur tumani	1324	1089	-235
Olmazor tumani	1699	1073	-626
Namangan sh.	1309	1042	-267
Buxoro sh.	1532	915	-617

2020- yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Respublika bo'yicha Andijon shahrida – 1584 tani tashkil etdi.






2020- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 15,0 birlikni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida 31,0 birlik, Navoiy viloyatida 20,8 birlik, Sirdaryo viloyatida 20,4 birlik, Jizzax viloyatida 18,1 birlik, Toshkent viloyatida 16,7 birlik, Buxoro viloyatida 16,7 birlik, Farg'ona viloyatida 13,2 birlikni tashkil etgan. Surxondaryo viloyatida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 10,5 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020– yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-sentabrida har 1000 aholiga
to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng
ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 60,8 birlik, Bektemir tumanida 57,9 birlik, Mirobod tumanida 47,4 birlik, Qorovulbozor tumanida 42,7 birlik, Tomdi tumanida 41,5 birlik, Guliston shahrida 41,4 birlik, Chilonzor tumanida 41,2 birlik, Mirzo-Ulug'bek tumanida esa 32,2 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori
ko'rsatkich

- Toshkent shahri Yakkasaroy tumani
- 60,8 birlik.

O'rtacha
ko'rsatkich

- Farg'ona viloyati Marg'ilon shahri
- 16,0 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

- Xorazm viloyati Hazorasp tumani
- 6,5 birlik.



Kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-sentabr holatiga ko'ra, % da

2020-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi **54,2** % ni tashkil qildi. (2019-yilning yanvar-iyunida **54,7** %).

YalMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

60,2%

2018- y.

54,7%


2019- y.

54,2%

2020- y.




Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax (83,2 %), Buxoro (76,9 %), Surxondaryo (76,0 %), Samarqand (75,4 %) va Namangan viloyatlariga (74,6 %) to'g'ri keldi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib - 23,8 % ga teng.



2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha YaHMdagi ulushi, % da



2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
O'zbekiston Respublikasi	25,3	72,1	52,4	50,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	20,4	92,6	52,5	34,5
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	17,5	92,8	66,7	69,5
Buxoro	32,9	81,9	68,1	44,6
Jizzax	61,2	96,4	61,3	73,7
Qashqadaryo	30,7	87,5	70,3	15,6
Navoiy	6,2	78,0	59,3	26,9
Namangan	48,3	89,8	65,2	76,2
Samarqand	43,0	87,5	70,2	72,4
Surxondaryo	41,9	85,9	67,6	60,8
Sirdaryo	40,3	98,2	55,6	48,4
Toshkent	20,3	79,6	69,8	40,2
Farg'ona	39,4	91,3	69,5	63,8
Xorazm	26,4	91,8	64,3	72,9
Toshkent sh.	36,6	75,5	44,5	54,1

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Jizzax (61,2 %),
Namangan (48,3 %),
Samarqand (43,0 %),
Surxondaryo (41,9 %),
Sirdaryo (40,3 %) va
Farg'ona (39,4 %)
viloyatlarida.


Qurilishda-

Sirdaryo (98,2 %),
Jizzax (96,4 %), Andijon
(92,8 %),
Qoraqalpog'iston
Respublikasi (92,6 %),
Xorazm (91,8 %) va
Farg'ona (91,3 %)
viloyatlarida.


Xizmatlarda-

Qashqadaryo (70,3 %),
Samarqand (70,2 %),
Toshkent (69,8 %),
Farg'ona (69,5 %)
Buxoro (68,1 %) va
Surxondaryo (67,6 %)
viloyatlarida.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 2195,6 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 17,6% ini tashkil etdi.






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Sirdaryo viloyatida – 76,4%, Xorazm viloyatida – 69,0 %, Jizzax viloyatida – 66,0 %, Namangan viloyatida – 63,8 %, Surxondaryo viloyatida – 62,7 %, Farg'on'a viloyatida – 58,6 % ni, eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida – 13,4 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 7 712,5 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 51,4% ini tashkil etdi.




2020- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida – 96,0 %, Surxondaryo viloyatida – 92,1 %, Namangan viloyatida – 77,2 %, Xorazm viloyatida – 72,4 %, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 69,2 %. Eng past ko'rsatkich Andijon viloyatida - 13,1 % ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subektlari tomonidan 64968,8 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2020- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri (16648,4 mlrd. so'm), Toshkent (9427,2 mlrd. so'm), Farg'ona (5833,4 mlrd. so'm), Samarqand (5255,0 mlrd. so'm) va Andijon (4568,3 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Surxondaryo viloyatida (1431,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlabi chiqarishining umumiylajmida kichik biznesning ulushi 25,3 foizni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Jizzax viloyati (61,2%), Namangan viloyati (48,3%), Samarqand viloyati (43,0%), Surxondaryo viloyati (41,9%), Sirdaryo viloyati (40,3%), Farg'ona viloyati (39,4%), Toshkent sh. (36,6%), Buxoro viloyati (32,9%), Qashqadaryo (30,7%) va Xorazm (26,4%) viloyatlari tashkil etdi. Navoiy viloyatida (6,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 110629,6 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 81,4% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 102,1 foizni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Toshkent shahri (20053,2 mlrd. so'm), Toshkent (12098,9 mlrd. so'm), Farg'ona (9823,9 mlrd. so'm), Andijon (8982,9 mlrd. so'm), Samarqand (8941,9 mlrd. so'm) va Qashqadaryo (8452,8 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 46986,3 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 72,1 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 102,1 foizni tashkil qildi.




2020- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Toshkent shahri (10086,7 mlrd. so'm), Samarqand (3705,8 mlrd. so'm), Toshkent (3674,2 mlrd. so'm), Farg'ona (3493,2 mlrd. so'm), Buxoro (3294,5 mlrd. so'm), Qashqadaryo (3223,3 mlrd. so'm) hamda Andijon (2917,7 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 82 267,7 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 52,4% ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,4% pasayish kuzatildi.



2020- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Toshkent shahri (25612,3 mlrd. so'm), Toshkent (8325,1 mlrd. so'm), Samarqand (7119,1 mlrd.so'm), Farg'ona (6706,2 mlrd.so'm), Andijon (5482,8 mlrd. so'm), Qashqadaryo (5086,1 mlrd. so'm) va Buxoro (4667,8 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.




2020- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 52,3 foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 76,7 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 foizni tashkil qildi.




2020- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,3 foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 9,1 foizga pasayishiga olib keldi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,4 foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,8 foizga pasayish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **15754** ta respondentlar ishtirok etdi.



2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,8 % (764 ta), sanoatda – 17,1 % (2690 ta), qurilishda – 10,3 % (1625 ta) , savdoda – 34,8 % (5477 ta), xizmatlar sohasida – 33,0 % (5198 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning ulushida barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3,1 punktga, sanoat sohasida 5,7 punktga, qurilishda 9,5 punktga, savdo sohasida 7,2 punktga, xizmatlar sohasida 6,1 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.


Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 6,7 punktga, sanoat sohasida 8,0 punktga, qurilishda 8,5 punktga, savdo sohasida 6,3 punktga, xizmatlar sohasida 13,5 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
2019-2020- yillar III choragida iqtisodiy
vaziyatini baholash, % da**

**Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi**

Sanoat **Qurilish** **Savdo** **Xizmatlar**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yil III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi 1,3 punktga, sanoat korxonalarida 6,5 punktga, qurilish korxonalarida 7,9 punktga, savdo sohasida 2,7 punktga, xizmatlar sohasida 5,3 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 0,3 punktga, qurilishda 0,6 punktga, savdoda 0,6 punktga, ximatlar sohasida 2,9 punktga oshdi.




**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
2019-2020- yillar III choragida iqtisodiy vaziyatining
yaqin uch oy uchun baholanishi,% da**







2020- yilning III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **1975** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 306 ta (15,5%), sanoat korxonalari – 392 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiyl sonining 19,8 % i), qurilish – 134 ta (6,8 %), savdo – 760 ta (38,5 %) va xizmatlarda – 383 ta (19,4 %) subyekt ishtirok etdi.




2020- yilning III choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yilning III choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yilning III choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.


Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida ham deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 6,2 punktga, sanoat sohasida 3,8 punktga, qurilishda 12,9 punktga, savdo sohasida 8,7 punktga va xizmatlar sohasida 7,7 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019-2020- yillarning III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020- yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 0,9 punktga, sanoatda 5,2 punktga, savdoda 2,3 punktga oshdi, qurilishda 5,0 punktga, xizmatlar sohasi korxonalarida esa 1,8 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 1,7 punktga, qurilishda 6,3 punktga, savdoda 4,2 punktga, xizmatlar sohasida 6,5 punktga oshdi.



2019-2020- yilning III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

